

# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ 1 (3) 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/1342V3I1Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР  
ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL  
SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулкиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

**Юлдашев Анвар Эргашевич** – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Мавланов Уктам Махмасабирович** – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Хазраткулов Абдор** – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

**Ҳакимов Назар Ҳакимович** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Яхшиликков Жўрабой** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

**Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич** – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

**Ҳошимхонов Мўмин** – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

**Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна** – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Ахмедов Ойбек Сапорбаевич** – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

**Кўчимов Шухрат Норқизилович** – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

**Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна** – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

**Кучкаров Раҳман Урманович** – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

**Юнусов Мансур Абдуллаевич** – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Саидов Улугбек Арипович** – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **ЮРИДИК ФАНЛАР:**

**Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Эсанова Замира Нормуратовна** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

**Зулфиқоров Шерзод Хуррамович** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

**Хайитов Хушвақт Сапарбаевич** – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Асадов Шавкат Ғайбуллаевич** – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

**Сайдуллаев Шахзод Алиханович** – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети.

### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

**Хашимова Дильдархон Уринбоевна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

**Ибрагимова Гулнора Хавазматовна** – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

**Закирова Феруза Махмудовна** – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;  
**Тайланова Шохид Зайниевна** – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Каримова Васида Маманосировна** – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Ҳайитов Ойбек Эшбоевич** – психология фанлари доктори (DSc), доцент. Ўзбекистон Республикаси Президенти хузури Давлат бошқаруви академияси;

**Умарова Навбахор Шокировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

**Атабаева Наргис Батировна** – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

**Қодиров Обид Сафарович** – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

**Латипова Нодира Мухтаржановна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

**Сеитов Азамат Пўлатович** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

**Содиқова Шохида Мархабоевна** – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **СИЁСИЙ ФАНЛАР**

**Назаров Насриддин Атақулович** – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

**Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич** – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

#### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилди.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**“Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

#### **Тахририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй.

#### **Электрон манзил:**

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## МУНДАРИЖА

### ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Шаисламова Наргиза Кабиловна*

КОРХОНАНИНГ КРЕДИТГА ЛАЁҚАТЛИЛИГИНИ БАҲОЛАШ РИСК  
ДАРАЖАСИНИ ПАСАЙТИРИШ ВОСИТАСИ СИФАТИДА ..... 7-20

*Mavrulova Nilufar Abduxalilovna*

TIBBIY SUG'URTA: AMALDAGI TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA MAJBURIY  
TURINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI ..... 21-29

### ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*Маматкулов Давлатжон Махаматжонович*

ИСЛОМ ҒОЯЛАРИНИ ЎРТА ОСИЁГА КИРИБ КЕЛИШ ТАРИХИ ВА УЛАРНИНГ  
МАФКУРАВИЙ ЖАРАЁНЛАРГА ТАЪСИРИ ..... 30-36

*Umarjonov Sohibjon Soyibjon o'g'li*

IBN SINONING "ISHORALAR VA TANBEHLAR" ASARI VA POSTKLASSIK ISLOM  
FALSAFASINING BOSHLANISHI ..... 37-50

### ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Ahmedov Oybek, Tilavova Malika*

SEMANTIC STRUCTURE OF WORDS RELATED TO EDUCATION IN  
ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ..... 51-62

*Ашурова Ситора Эркиновна*

ВАЖНОСТЬ КОМПЬЮТЕРОВ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ЯЗЫКОВ ..... 63-69

### ЮРИДИК ФАНЛАР

*Абдуллаева Мафтуна Мурот кизи*

СУДНИНГ ҲУҚУҚНИ ШАРҲЛАШ ҲУЖЖАТЛАРИ КОНСТИТУЦИЯВИЙ  
НАЗОРАТ ОБЪЕКТИ СИФАТИДА ..... 70-77

*Авезова Элеонора Парахатовна*

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИГА ҚАБУЛ  
ҚИЛИШНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ ..... 78-86

*Ахмедова Шахноза Озоджоновна*

СООТНОШЕНИЕ ОЦЕНКИ ВОЗДЕЙСТВИЯ НА ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ И  
ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ..... 87-95

### ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Tashpulatov Farxad Alisherovich*

GANDBOLCHILAR O'YIN FAOLIYATI SAMARADORLIGINI HAR TOMONLAMA  
BAHOLASH METODIKASI ..... 96-104

*Парманов Абулқосим, Абдурашидова Мавжуда*

ЎҚУВЧИЛАРДА ТЕСКАРИ ФУНКЦИЯ ТУШУНЧАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСУЛИ ҲАҚИДА ..... 105-110

*Hamrayeva Zuhro Bahodirovna*

BOLALARNI GO'DAKLIK DAVRIDAN SUZISHGA O'RGATISH ORQALI JISMONIY  
RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 111-119

*Tўрабоева Мадинахон Рахмонжон қизи*

ТАЛАБАЛАРНИНГ ШАХСИЙ-КРЕАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШДА ЎҚУВ ЛОЙИХАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 120-126

*Абдурахмонова Сайёрахон Шахобидиновна*

АКМЕОЛОГИК ЁНДАШУВ – БЎЛҒУСИ ТАРБИЯЧИЛАРИДА КАСБИЙ  
ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ОЛИЙ ТАЪЛИМДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АСОСИ  
СИФАТИДА ..... 127-135

*Shermatov Gulom Kaxxorovich*

“5-1” НИМОҲАСИНИ БАЖАРИШДА ГАНДБОЛ О'ЙИНЧИЛАРИНИНГ ТАКТИК  
О'ЗARO TA'SIRI ..... 136-143



Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари. -2023. -№ 1(3).

ISSN: 2181-1342 (Online)


<https://scienceproblems.uz>

*Иқтисодиёт фанлари*

**Mavrulova Nilufar Abduxalilovna**

Toshkent moliya instituti dotsenti, PhD

## TIBBIY SUG'URTA: AMALDAGI TURLARINI RIVOJLANTIRISH VA MAJBURIY TURINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI

 <https://doi.org/10.47390/1342V3I1Y2023N2>

**Аннотасија:** Mazkur maqolada tibbiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyalashdagi ahamiyati, uni omma orasida keng targ'ib qilishning muhimligi hamda majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish tizimini tugallab, uni ommaviy ravishda amal qilishini joriy etish zarurati bayon qilingan. Shuningdek, ixtiyoriy tibbiy sug'urtani rivojlantirish yo'nalishlari belgilangan hamda majburiy turini joriy etishga to'sqinlik qilayotgan jihatlar aniqlangan va ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

**Tayanch so'zlar:** tibbiy sug'urta, majburiy tibbiy sug'urta, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, sug'urtalangan shaxs, sug'urta mukofoti, sug'urta qoplamasi, ijtimoiy ajratmalar, assistanslar, sug'urta polislari.

**Маврулова Нилуфар Абдухалиловна**

Доцент Ташкентского финансового института,  
кандидат экономических наук

## МЕДИЦИНСКОЕ СТРАХОВАНИЕ: ВОЗМОЖНОСТИ РАЗРАБОТКИ ДЕЙСТВУЮЩИХ ВИДОВ И ВОЗМОЖНОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ОБЯЗАТЕЛЬНОГО МЕДИЦИНСКОГО СТРАХОВАНИЯ

**Аннотация:** в данной статье рассмотрено значение медицинского страхования в социальной защите населения, важность его широкой пропаганды в массах, а также необходимость доработки системы поэтапного введения обязательного медицинского страхования и внедрения его в массы. Также определены направления развития добровольного медицинского страхования, выявлены аспекты, препятствующие введению обязательного вида, и даны указания по их устранению.

**Ключевые слова:** медицинское страхование, обязательное медицинское страхование, страховщик, страхователь, застрахованное лицо, страховая премия, страховая защита, социальные выплаты, ассистансы, страховые полисы.

**Mavrulova Nilufar Abdukhalilovna**  
Associate Professor of the Tashkent Financial  
Institute of the Republic of Uzbekistan,  
PhD in Economic Sciences

## HEALTH INSURANCE: OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING ACTIVE TYPES AND OPPORTUNITIES FOR INTRODUCING COMPULSORY HEALTH INSURANCE

**Abstract:** This article discusses the importance of health insurance in the social protection of the population, the importance of its wide promotion among the masses, as well as the need to refine the system for the phased introduction of compulsory health insurance and its introduction to the masses. The directions for the development of voluntary medical insurance are also identified, as well as aspects that impede the introduction of a mandatory type, and instructions are given for their elimination.

**Keywords:** health insurance, compulsory health insurance, insurer, policyholder, insured person, insurance premium, insurance protection, social benefits, assistance, insurance policies.

O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta majburiy bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, respublikada “Tibbiy sug‘urta to‘g‘risida”gi qonun loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqish rejalashtirilganligi aytilib o‘tilgan[1]. Mazkur qonun bilan har bir fuqaroni tibbiy sug‘urta tizimi bilan qamrab olish umumiy va majburiy bo‘lishi hamda ularning tibbiy va profilaktik xizmatlarga teng huquqi, shuningdek, sug‘urta polisiga muvofiq yuqori sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish kafolati belgilab qo‘yilgan.

Tibbiy sug‘urta - sug‘urtalanuvchi tomonidan to‘plangan mablag‘lar hisobidan sug‘urta hodisasi yuz bergan taqdirda tibbiy yordam uchun to‘lov kafolati sifatida ifodalangan sog‘liqni saqlash sohasida aholining manfaatlarini ijtimoiy muhofaza qilishning bir shakli. Tibbiy sug‘urta, fuqarolarga kasallik bo‘lgan taqdirda sug‘urta hodisasi (sog‘lig‘ining buzilishi) holatlarida muayyan hajmdagi tibbiy xizmatni bepul taqdim etishga kafolat beradi, sug‘urta tibbiy muassasasi bilan shartnoma mavjudligini tasdiqlaydi. Majburiy tibbiy sug‘urta sug‘urta hodisasi yuz berganda sug‘urtalangan shaxsga majburiy tibbiy sug‘urta hisobiga bepul tibbiy yordam ko‘rsatishni kafolatlovchi davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy choralar tizimi bo‘lgan majburiy ijtimoiy sug‘urta turi hisoblanadi.

Bugun mamlakatda majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish imkoniyatlari va shartlari tez-tez muhokama etilmoqda. Majburiy sug‘urtaning ushbu turi joriy etilishi sog‘liqni saqlash tizimi hamda sug‘urta sohasini isloh qilishga oid ba‘zi hukumat dasturlarida ham ko‘zda tutilmoqda. Majburiy tibbiy sug‘urtani joriy etish



imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan avval tibbiy sug'urtaning o'zi haqida qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. Tibbiy sug'urta sug'urtaning bir turi bo'lib, unda sug'urtalanuvchi sug'urta tashkiloti bilan kelishilgan ma'lum haq (sug'urta mukofoti) evaziga tibbiy xizmatdan foydalanish bo'yicha xarajatlarning yuzaga kelish xavfini sug'urta shartnomasida kelishilgan summa va shartlar asosida sug'urta tashkilotiga o'tkazadi. Sug'urtalanuvchi salomatligi yomonlashganligi sababli xarajat qilishga majbur bo'lganda sug'urta tashkiloti ushbu xarajatlarni sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan pul mablag'lari doirasida qoplab beradi.

Agar tibbiy sug'urta shartnomasi ixtiyoriy tarzda tuzilsa, u holda ixtiyoriy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Tibbiy sug'urta shartnomasi qonun asosida majburiy tarzda tuziladigan bo'lsa, ya'ni fuqarolar qonunga binoan tibbiy sug'urta shartnomasi tuzishga majbur bo'lsalar, u holda sug'urtaning bu turi majburiy tibbiy sug'urta hisoblanadi. Qonunchilikka asosan majburiy tibbiy sug'urta ijtimoiy yo'naltirilgan sug'urta turi hisoblangani bois ushbu sug'urta turini amalga oshiruvchi sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy barqarorlik va to'lov qobiliyatiga oid qo'shimcha talablar qo'yilishi mumkin. Bunda shuni ta'kidlash lozimki, majburiy tibbiy sug'urta ijtimoiy sug'urta ko'rinishida ham amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy sug'urtaning odatdagi sug'urtadan farq qiluvchi tomoni shundaki, ijtimoiy sug'urtada yagona ijtimoiy sug'urta fondi yaratiladi va bu fond asosan sug'urta mablag'larini to'plab, tijorat maqsadlarini ko'zlamagan holda mablag'larni mo'ljaldagi maqsadlarga qayta taqsimlaydi. Majburiy tibbiy sug'urtani ijtimoiy sug'urta sifatida amalga oshirganda bu sohadagi munosabatlar sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonunchilik doirasiga tushmaydi. Bu o'z navbatida ushbu sohadagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi yangicha me'yoriy-huquqiy aktlar majmuasini ishlab chiqishni talab etadi, bu muammolarni hal etishning samarali vositalaridan biri, shubhasiz, mamlakatimizda tibbiy sug'urtaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisoblanadi.

Tibbiy sug'urtaning amaldagi turlarini rivojlantirish hamda majburiy turini joriy etish bilan birgalikda uni samarali tashkil etish ayni soha taraqqiy etgan mamlakatlar tartibi va tajribasini o'rganishni va qo'llash mumkin bo'lgan jihatlarni aniqlashni taqozo etadi. Shu bois, rivojlangan davlatlar amaliyotidan namunali jihatlarni keltiramiz.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarining ko'pchiligida ixtiyoriy va majburiy tibbiy sug'urta tizimi davolanish uchun moliyaviy xarajatlarni og'irligini alohida olingan fuqarolardan jamiyatga yuklash zarurati natijasida vujudga kelgan. Bunday yordam XX asrga qadar beistisno tarzda xususiy, professional tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan ta'minlangan. Shundan so'ng tibbiy yordamni moliyalashtirish bo'yicha davlatning mavqei osha bordi. Ko'pgina mamlakatlarda kasaba uyushmalari ta'siri ostida sug'urtalashning davlat tizimi rivojlanishi natijasida hunarmandlar, sanoat

ishchilari bu borada aholining boshqa guruhlariga nisbatan birinchilar qatorida imtiyozga ega bo'la boshladilar.

Xususan, Germaniyada ijtimoiy sug'urtaga daromadlarni taqsimlashning muhim mexanizmi sifatida yondashiladi. Bunda majburiy tibbiy sug'urta bilan aholining taxminan 90 foizi qamrab olingan. Aholining taxminan 10 foizi, ya'ni yuqori va juda yuqori daromadga ega qatlami faqat ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlaridan foydalanadi, majburiy tibbiy sug'urta tizimiga kiruvchi taxminan yana 5 foiz aholi qo'shimcha ravishda ixtiyoriy tibbiy sug'urtadan ham foydalanadi, bu esa boshqa shifokorni tanlash, gospitallashning qulayroq usullarini tanlab olish yoki kasallanganda qo'shimcha tovon puli olish imkonini yaratadi. Germaniyada har bir tizim faoliyat ko'rsatish manbalarining shakllanishiga ko'ra quyidagicha moliyalashtiriladi, sog'liqni saqlashni moliyalashtirishning 60 foizi majburiy tibbiy sug'urta fondlariga to'lanadigan badallar orqali, 10 foizi tijorat asosidagi sug'urtalash mablag'lari hisobiga, taxminan 15 foizi davlat byudjeti resurslari hisobiga va taxminan 15 foizi fuqarolarning shaxsiy mablag'laridan tashkil topadi.

Shu tariqa, har bir davlat tibbiy yordamning moliyalashtirilishini tashkil etish bo'yicha javobgarlikni ijtimoiy sug'urtalash tizimini barpo etish orqali o'z zimmasiga olgan bo'lib, u mamlakatda mavjud ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy vaziyatga moslashgan bo'ladi. Ayni chog'da majburiy sug'urtaning rivoji qanchalik kuchli bo'lmasin, ixtiyoriy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishiga to'sqinlik qila olmadi. Aksincha, sug'urtaning bu sohasi keyingi yigirma-o'ttiz yil ichida ijtimoiy ta'minot va fuqarolarning himoyalaniishi tizimida u mustahkam o'rin oldi. Aynan ixtiyoriy tibbiy sug'urta sharofati bilan majburiy (davlat) sog'liqni saqlash tizimi doirasida sug'urta tamoyillarini qo'llash imkoniyati tug'ildi.

Barcha mamlakatlarga xos bo'lgan xorijiy tajribaning bosh xususiyati shuki, tibbiy sug'urtaning ikkala – majburiy va ixtiyoriy tizimi ham bir-birini to'ldirib turadigan modelni tashkil etadi va bu deyarli barcha kasalliklar va uning oqibatlarini qoplama bilan ta'minlash imkoniyatini beradi.

O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimida bozor munosabatlariga xos bo'lgan mexanizmlarni joriy etish, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining sifatli qondirilishini ta'minlash maqsadida respublika hukumati tomonidan kompleks tusga ega bo'lgan ishlar amalga oshirildi. Biroq, sog'liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirishda Davlat byudjeti mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlash, bu borada xalqaro amaliyotda qo'llanilayotgan moliyalashtirish manbalarini O'zbekiston amaliyotida qo'llashni taqozo etyapti. Shu tufayli, respublikamizda majburiy tibbiy sug'urta tizimini joriy etishga zaruriy ehtiyoj sifatida qaralmoqda.

O'zbekistonda tibbiy sug'urtani amalga oshirishning o'ziga xos ijobiy tomonlari juda ko'p, shu bilan birga aytish joizki, xuddi shu ijobiy tomonlarni aholiga amaliyotda qo'llanilishining joriy holatini namoyish qilish orqali anglatish juda muhim. Ammo

mamlakatimiz sugʻurta bozorida aynan tibbiy sugʻurtaning amalga oshirilishi yuzasidan statistik maʼlumotlar matbuot yoki sugʻurta kompaniyalari saytida eʼlon qilinmaydi va bu holat tibbiy sugʻurtaga boʻlgan qiziqishni susaytiradi. Aksincha internet saytlarida, turli portal va matbuot orqali ommaga namoyish etishni kuchaytirish zarur, shunda majburiy tibbiy sugʻurtaning joriy etilishi jarayoni ham tezlashadi.

Bugungi kunda Sirdaryo viloyatida tajriba-sinov tariqasida joriy etilgan Davlat tibbiy sugʻurtasi mexanizmlarining natijalaridan kelib chiqib, sogʻliqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modelini boshqa hududlarga joriy etish orqali aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish koʻzda tutilgan. Shu maqsadda 2023 yil 1 yanvardan eʼtiboran Navoiy viloyatida, 2023 yil 1 oktyabrdan Qoraqalpogʻiston Respublikasi va Toshkent shahrida hamda 2024 yil 1 yanvardan Samarqand, Surxondaryo va Fargʻona viloyatlarida majburiy tibbiy sugʻurta tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish boʻyicha qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, mutassaddi tashkilotlar tomonidan 2023-2025 yillarda davlat tibbiy sugʻurtasi tizimini hududlarda joriy etish boʻyicha tizimli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan boʻlib, sogʻliqni saqlash tizimining barcha bosqichlaridagi muassasalar va sohalarni 2023-2025 yillarda raqamlashtirish boʻyicha Dastur taklif etilgan. Ayrim turdagi maʼlumotlar va elektron koʻrinishdagi hujjatlarni Yagona platformaga “Elektron hukumat” tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasidan foydalangan holda berish uchun masʼul boʻlgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari zimmasiga elektron maʼlumot bazalarini oʻz vaqtida va sifatli shakllantirish, maʼlumotlarni raqamlashtirish, maʼlumotlar hamda elektron koʻrinishdagi hujjatlarni muddatida berish yuzasidan koʻrsatmalar belgilangan[2].

Mamlakatda joriy etiladigan yangi tizimni moliyalashtirish Vazirlar Mahkamasi huzurida tashkil etiladigan Majburiy tibbiy sugʻurta jamgʻarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Jamgʻarmaning asosiy vazifasi mablagʻlarni boshqarish va fuqarolarni majburiy sugʻurtalash, sugʻurtalangan shaxslarni hisobga olish va harakatlanish mexanizmlarini joriy qilishdan iborat boʻladi.

Jamgʻarmaga quyidagi manbalar orqali mablagʻlar kelib tushishi koʻzda tutilgan:

davlat byudjetidan ajratmalar;

tamaki mahsulotlari, alkogol, tarkibida shakar, transyogʻlar yuqori darajada boʻlgan mahsulotlar va sogʻliq uchun zararli boʻlgan boshqa mahsulotlarga aksiz soligʻidan maqsadli ajratmalar;

sud qarorlari ijrosi boʻyicha kompensatsiya toʻlash uchun davlat byudjetidan olingan mablagʻlar;

ixtiyoriy badallar hamda yuridik va jismoniy shaxslarning hadya shartnomalari boʻyicha tushumlar;

xalqaro tashkilotlar grantlari;

xayriya jamg'armalaridan, xalqaro tashkilotlar va xorijiy fuqarolardan keladigan mablag'lar.

Quyidagi jadvalda O'zbekiston Respublikasida majburiy tibbiy sug'urtani joriy etishdan kutilayotgan natijalar keltirilgan.

**Jadval.**

**Majburiy tibbiy sug'urtaning imkoniyatlari [3]**

<b>Fuqarolar uchun</b>	<b>Jamiyat va davlat uchun</b>	<b>Tibbiy xizmatni yetkazib beruvchilar uchun</b>
Tibbiy yordamdan foydalanish imkoniyati darajasi va sifatini oshirish	Aholini tibbiy yordam bilan har tomonlama qamrab olish	Tibbiy xizmatlar yetkazib beruvchilarni barqaror moliyalashtirish
Davlat tomonidan kafolatlangan yagona tibbiy xizmatlar hajmini bemorlar haq to'lashi nazarda tutilgan xizmatlardan aniq ajratilishi, fuqarolarning tibbiy xizmatlarga ehtiyojini o'z vaqtida va sifatli qondirishga yo'naltirilgan sog'liqni saqlash tizimini shakllantirish	Sog'liqni saqlash xarajatlarini optimallashtirish, resurslardan foydalanish nuqtai nazaridan sog'liqni saqlash tizimining ochiq-oshkoraligi	Yangi korporativ boshqaruv usullari joriy etilishini rag'batlantirish va sog'liqni saqlash tizimiga qo'shimcha resurslarni jalb qilish
Salomatlikni mustahkamlash va o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish	Tibbiy xizmatlar hajmi, ta'minoti sifatini oshirish va ularni moliyalashtirishga imkon beruvchi moliyaviy-barqaror tizimni shakllantirish	Mazkur sohada sog'lom raqobatni rivojlantirish uchun sharoit yaratish
Tibbiy xizmatlar uchun norasmiy to'lovlar darajasini kamaytirish	Sog'liqni saqlash ishida davlat va fuqarolarning solidar javobgarligini ta'minlash	Tibbiy xizmatlar uchun norasmiy to'lovlar darajasini kamaytirish

Mamlakat aholisining salomatligini muhofaza qilishga davlat darajasida berilayotgan e'tibor 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'rtinchi yo'nalishi doirasida amalga oshirilmoqda [4] va uning bugungi kundagi eng ustuvor vazifalaridan biri bo'lib majburiy tibbiy sug'urtani amaliyotga keng tadbiiq etishning zarurligi hisoblanadi. Quyida mamlakatimizda majburiy tibbiy sug'urtani joriy etishga to'sqinlik qilayotgan ayrim jihatlar sanab o'tiladi.

1. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlariga aholi tomonidan talabning pastligi. Ma'lum darajada bu hol tibbiy sug'urtaning afzallik va qulayliklarini tushunmaslik bilan bog'liq. Shunga mos ravishda talabni ma'rifat va targ'ibot orqali oshirish mumkin. Shu munosabat bilan sug'urta kompaniyalari tibbiy sug'urta masalalariga bag'ishlangan seminarlar, davra suhbatlari, teleko'rsatuvlarni o'tkazish bilan bog'liq faoliyatlarni jonlantirish lozim. Shuningdek, bu maqsadlarga milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda mahalla qo'mitalarini jalb qilish keng targ'ibotni tezlashtirishga

hamda aholi tomonidan sugʻurtaning ushbu turini ijobiy qabul qilinishiga imkon berishi mumkin.

2. Koʻpchilik tibbiyot muassasalari sugʻurta kompaniyalari bilan shartnoma tuzishdan bosh tortadilar, chunki ularga naqd pul bilan ishlash qulaydir. Sugʻurta kompaniyalari xizmatlar uchun toʻlovni maʼlum vaqtdan soʻng toʻlaydilar va bu toʻlov naqd pulsiz toʻlov shaklida amalga oshiriladi. Bugungi kunda bankda naqd pul olish bilan bogʻliq jiddiy muammolar mavjud boʻlgan, tashkilot oʻz daromadlarining qaysi qismini naqd pul bilan olishi bilan bogʻliq boʻlgan vaziyatda bu jihat tijoriy tibbiyot muassasalari uchun gʻoyatda muhimdir.

3. Xodimlarni korporativ sugʻurtalashda sugʻurta kompaniyasiga toʻlanadigan sugʻurta mukofoti xodimning daromadi hisoblanadi va soliqqa tortiladi (daromad soligʻi, ijtimoiy ajratmalar). Bunda agar korxonada tibbiyot muassasasi bilan oʻz xodimlariga xizmat koʻrsatish toʻgʻrisida bevosita shartnoma tuzsa, toʻlanadigan mablagʻlar xodimlarning daromadi deb hisoblanmaydi.

4. Tibbiyot muassasalari sugʻurta kompaniyalari bilan shartnoma tuzishda oʻz xodimlarining xatolari uchun moliyaviy javobgarlikka oid keskin shartlarga rozi boʻlmaydilar. Shuning uchun mijozga bunday turdagi xatolar tufayli zarar yetkazilgan hollarda moliyaviy javobgarlik kimning zimmasiga yuklatilishi har doim ham tushunarli boʻlavermaydi. Bunday nizolarni Oʻzbekistonda juda kamdan-kam hollarda sud orqali hal qilinishini nazarda tutish lozim. Bu narsa birinchidan, xususiy masalalarni hal qilish uchun sud tizimiga murojaat qilish anʼanasining yoʻqligi bilan, ikkinchidan, sud muhokamasining uzoqqa choʻzilishi boʻlishi bilan bogʻliqdir. Bunday muammo qisman shifokorlar javobgarligini ixtiyoriy sugʻurtalash usulidan yoki shifokorlar javobgarligini majburiy sugʻurtalashni joriy qilish usulidan keng foydalanish yoʻli bilan hal qilinishi mumkin. Sugʻurtalashning ushbu turiga koʻra (shifokorlar javobgarligini majburiy sugʻurtalash) tibbiy xizmat uchun murojaat qilgan shaxsga shifokorning xatosi tufayli yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini sugʻurta kompaniyasi oʻz zimmasiga oladi. Natijada shifokorlarning xatosi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplash imkonini beruvchi sugʻurtaga ega boʻlgan tibbiyot muassasalari sugʻurta kompaniyalari bilan shartnomalar tuzadi.

5. Kasallik turlari, oʻlim sabablari boʻyicha batafsil tasniflangan tibbiy statistika maʼlumotlaridan foydalanish juda qiyin. Yetarli darajada statistik maʼlumotlar yoʻqligi tufayli sugʻurtalovchilar qabul qilinayotgan sugʻurta risklarini real baholash imkoniyatidan mahrumlar. Oqibatda sugʻurtalovchilarning hisob-kitoblarida nisbiy xatoliklar darajasi yuqoridir. Ana shunday sharoitlarda sugʻurta kompaniyalari vaziyatdan chiqishga urinmoqdalar: oʻzlari mustaqil statistika olib bormoqdalar va risklarni shu asosida hisoblamoqdalar. Biroq majburiy tibbiy sugʻurta joriy qilinganda statistika bilan bogʻliq muammolar markaziy muammolardan biriga aylanadi, chunki bunda risklarni juda katta sonli kasalliklar boʻyicha, Oʻzbekistonning barcha

mintaqalari bo'yicha hisoblash kerak bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekistonda va ayrim mintaqalarda keng tarqalgan kasalliklar tendensiyalarini davriy ravishda (3-5 yilda bir marta) baholab borish lozim. Bunday tahlilning natijalaridan sug'urta kompaniyalari, tibbiyot muassasalari va ayrim mutaxassislar bimalol foydalanishlari uchun imkoniyat yaratib berish lozim.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar sug'urtalangan shaxs tibbiy xizmatlardan ushbu sug'urtaning qulay va manfaatli ekanligini bilib turib sug'urta polisi orqali foydalangan bo'lsa (bunda sug'urta mukofotining kichik bir qismini to'lagan mijoz bir necha baravar katta miqdordagi tibbiy xizmatlardan foydalanadi), odatda ixtiyoriy tibbiy sug'urta polisining amal qilish muddatini keyingi davrga ham uzaytiradi.

6. Ixtiyoriy tibbiy sug'urtalashdan tushadigan daromadlarning pastligi, ba'zan esa (ayniqsa jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan polislar bo'yicha) zararkorligi. Ushbu zararkorlikni faqat ixtiyoriy tibbiy sug'urta ko'lamini kengaytirish yo'li bilangina bartaraf qilish mumkin.

7. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy baza yo'q. Faqat ixtiyoriy tibbiy sug'urta bilan shug'ullanuvchi sug'urtalovchilar uchun mo'ljallangan qo'shimcha maxsus imtiyozlar yo'q. Ixtiyoriy tibbiy sug'urta tizimiga qo'yilgan asosiy talablarni, tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda ixtiyoriy tibbiy sug'urtani amalga oshirishning asosiy shartlarini, yagona tariflarni (masalan, ambulator-poliklinika xizmatlariga nimalar kiradi yoki tibbiy ko'rik deganda nima tushuniladi kabi) belgilab beruvchi me'yoriy-huquqiy baza yo'q.

8. Faoliyat ko'rsatib turgan assistans kompaniyalari xalqaro standartlarga mutlaqo javob bermaydi, ularda xizmat ko'rsatish tezkorligi yo'q, xizmat ko'rsatuvchi operatorlarning malakasi past. Bunday operatorlar yuqori malakali tibbiyot xodimlari bo'lishlari kerak, ular murojaat qilgan sug'urtalangan shaxslarning holatini tushunibgina qolmay, balki taxminiy tashxis qo'ya olishlari va mijozni kerakli ixtisosdagi klinikaga yuborishlari lozim.

Ixtiyoriy tibbiy sug'urtani amalga oshirish texnologiyasini shunday tashkil etish kerakki, tibbiyot muassasasiga kirish erkin bo'lsin, ya'ni buning uchun sug'urtalangan shaxs sug'urta polisi va shaxsni tasdiqlovchi hujjat ko'rsatib o'tirishga majbur bo'lmasin.

Uzoq vaqt olib borilgan tadqiqotlar va statistik materiallarni to'plash, ixtiyoriy tibbiy sug'urta xizmatlariga bo'lgan bozor talabini izchil o'rganish, shuningdek majburiy va ixtiyoriy tibbiy sug'urta o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tahlil qilish natijasida xususiy sug'urtalovchilar polis majburiyatlarining muayyan tarkibini – sug'urta qoplamasi tarkibini ishlab chiqdilarki, u iste'molchilarning shaxsiy talablarini hisobga olgan holda keng miqyosli tibbiy xarajatlar yuzasidan to'lovlarni o'tkazish imkonini beradi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 1 apreldagi PQ-2863-sonli qarori.
2. <https://www.project.gov.uz> sayti ma’lumotlari.
3. [https://www.norma.uz/nhh\\_loyihalari/majburiy\\_tibbiy\\_sugurta\\_uch\\_bosqich\\_da\\_joriy\\_etiladi](https://www.norma.uz/nhh_loyihalari/majburiy_tibbiy_sugurta_uch_bosqich_da_joriy_etiladi).
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.